



“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.

7	Nasiba SIDIKOVA, Sevinch G‘AFFOROVA, “Malika ayyor” dostoni variantlarida hasanxon obrazi tahlili	400
8	Nargiza UMURZAQOVA, Tohir Malikning “Odamiylik mulki” asarida Imom G‘azzoliy hikmatlarining o‘rni	405
9	Nurjahon RAHMONBERDIYEVA, Muhammad Alining “Avliyoning bashorati” dostonida tarix haqiqati va badiiyati	408
10	Mohinabonu RAHMATOVA, Nurota dostonchilik maktabining shakllanishi va rivojlanishi	412
11	Sanobar TURSUNOVA, Murod Mansurning “Judolik diyori” romanida diniy motivlar	414
12	Lobar AVAZOVA, Komiljon Imomov- o‘zbek xalq ertaklari tadqiqotchisi	417
13	Ozoda RAJABBOYEVA, “Xuastuanift” asarida qadimgi mifologik dunyoqarashning aks ettirilishi	421

5-SHO‘BA. FOLKLOR VA ADABIY ALOQALAR

1.	Matluba JABBOROVA, O‘zbek folkloridagi ayollar obrazining mumtoz adabiyotdagi transformatsiyasi	425
2.	G‘ayratbek XOLBUTAYEV, Komik folklor janrlari tizimi: genezis, poetika va semantik transformatsiya	428
3.	Abdukamol ABDUJALILOV, Sehrli ertaklarda motiv va obraz munosabati	433
4.	Ma‘mura RAMATOVA, Shimoliy Xorazmdagi ayrim tarixiy godonimlarini qiyosiy tahlil qilish	437
5.	Gulruh RAVSHANOVA, Muhammad Yusufning “Qora quyosh” dostonida poetik psixologizm	441
6.	Feruza TURDIMOVA, Muzayyana Alaviya adabiy merosida xalq og‘zaki ijodi va badiiyat uyg‘unligi	445
7.	Saodat JO‘RAYEVA, Bolalar folklori janrlarining badiiy va tarbiyaviy xususiyatlari	448
8.	Aziza SAYDULLAYEVA, O‘zbek-turk xalq sehrli ertaklarida soch obrazining mifopoetik talqini	451
9.	Huriniso XAYRULLAYEVA, “Qisasi Rabg‘uziy”da mavjud she‘riy parchalar badiiyatida folklor elementlarining ifodalanishi	454
10.	Sadoqat KAMOLOVA, “Masxara” obrazining badiiy-tarixiy funksiyasi (xalq og‘zaki ijodidan to bugungi kungacha bo‘lgan davr miqyosida)	456
11.	Shohzoda TURSUNBOYEVA, Mifologik va fantastik tafakkurda “barhayotlik” muammosining namoyon bo‘lishi	459
12.	Dilafruz MAHKAMOVA, “Bilga xoqon” romanida tarixiy xotira va turkiy qahramon xarakteri	463
13.	Nilufar DEHQONOVA, “Devonu lug‘otit-turk”dagi mifologik obrazlar va ularning folkloriy transformatsiyasi	468

“XUASTUANIFT” ASARIDA QADIMGI MIFOLOGIK DUNYOQARASHNING AKS ETTIRILISHI

THE REPRESENTATION OF ANCIENT MYTHOLOGICAL WORLDVIEW IN THE TEXT XUASTUANIFT

Ozoda RAJABBAYEVA,
Tosh DO‘TAU tayanch doktorant,
10.52773/tsuull.conf.2026/CNFA7337

Annotation. *The work “Xuastuanift” is one of the leading sources of Manichaeism, which was one of the three major religious movements, and this monument is equally significant for Turkic cultural heritage. This text was regarded among Manichaeans as a hymn. Its distinctiveness lies in the fact that it explains and analyzes the causes of the emergence of Manichaeism, its essence, and its role in society. Although “Xuastuanift” has not been preserved in its complete form, it remains a valuable source that provides substantial information about mythological concepts and images. Notably, cosmogonic myths occupy an important place in this work. Therefore, this article examines the origin of “Xuastuanift”, as well as the mythological ideas and images reflected in it. The arguments are supported by excerpts from the text.*

Keywords: *cosmogonic mythology, moon, sun, deity, sin, repentance.*

Moniylik dini milodiy III asrda Eronda shakllangan diniy-falsafiy ta’limotlardan biri hisoblanadi. Moniylik nazariyasiga ko‘ra, borliq ikki asosiy ibtido – nur va zulmat, ya’ni ruhiy va moddiy olam o‘rtasidagi qarama-qarshilikka asoslanadi. Ta’limotga muvofiq, ushbu ikki olam o‘rtasidagi kurash muqarrar ravishda yakun topadi: moddiy dunyo halokatga uchraydi, ruh esa ozodlikka erishadi. Shu bois, moddiy borliq yovuzlik makoni sifatida talqin qilinadi. Inson esa o‘z tabiatida ikki qarama-qarshi unsur – ruhiy (ilohiy nur) va moddiy (zulmat) jihatlarni mujassamlashtirgan mavjudot sifatida qaraladi. Ruh nur manbai bilan bog‘liq bo‘lsa, jism zulmat olamining ifodasi hisoblanadi. Bu jarayonda axloqiy poklik, halollik va to‘g‘ri hayot tarziga amal qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, barcha tirik mavjudotlarni muqaddas deb bilish, ularni asrash va zo‘ravonlikdan tiyilish g‘oyalari ham ushbu ta’limotning ajralmas qismi hisoblanadi. Noto‘g‘ri xatti-harakatlar uchun tavba qilish amaliyoti ham muhim diniy marosimlardan biri sifatida e’tirof etiladi. Moniylik ta’sirida yaratilgan muhim manbalardan biri “Xuastuanift” asaridir. Ushbu asar moniylik orasida madhiya va e’tiqodiy matn sifatida keng tarqalgan bo‘lib, unda dinning paydo bo‘lish sabablari, asosiy g‘oyalari hamda jamiyatdagi o‘rni ilmiy-nazariy jihatdan izohlangan. Ushbu asar nomi “Tinglovchilarning gunohlariga o‘kinishi” degan ma’noni bildiradi. Qo‘lyozma chiroqli xat bilan o‘rama qog‘ozga yozilgan, biroq qog‘ozning bosh qismi yirtilgan. Matndan taxminan 160 qator saqlangan.

“Xuastuanift” asarida hayvon-u jonzotlarni asrashlik, ularga hurmat ko‘rsatish lozimligi aytilgan. Misol tariqasida quyidagi parchani keltirishimiz mumkin:

Asl matn. Bişinç:

“Biş türlüğ tñlğqqa : bir yämä iki adaqlığ kişikä ikinti tört butluğ tñlğqqa : üçünç uçuğma tñlğqqa : törtünç suw içräki tñlğqqa : bişinç yirdäki bağrın yoriğma tñlğqqa : suyda baru täñrim bu biş türlüğ tñlğğağ turalığğağ uluğqa kiçigkä tägi näçä qorqıtdımız ürkitdimiz ärsär : näçä

urtumuz yontumuz ärsär : näčä açitdimiz ağritdimiz ärsär : näčä ölürdümüz ärsär : munča tñliğqa turaliğqa öz ötäğči boltumuz : täñrim amtı yazuqda boşunu ötünürbiz.”[Q.Sodiqov, 2009; 320-b]

Ma'nosi. Beshinchi bo'lim:

“Besh xil jonzotga: birinchidan, ikki oyoqli insonga, ikkinchidan, to'rt oyoqli hayvonga, uchinchidan, uchuvchi jonzotlarga, to'rtinchidan, suv ichidagi jonzotlarga, beshinchidan, yerdagi sudralib yuruvchi jonzotlarga ozor yetkazib, tangrim, bu besh xil mavjudotni, ulug'idan kichigiga qadar qancha qo'rqitib hurkitgan bo'lsak, qancha urib azoblagan bo'lsak, qancha ranjitgan bo'lsak, qancha o'ldirgan bo'lsak, shuncha jonzotga qarzdor bo'ldik. Tangrim, endi gunohdan xalos etgin, deya o'tinurmiz. Gunohimizni kechirgaysan!”

Bu kabi parchalar asarda juda ham ko'p kuzatiladi. Aytib o'tganimizdek, hayvonlarni asrash, unga ozor bermaslik ushbu dinning tamoyillaridan biri hisoblanadi.

Asarda Kun, Oy va Ko'k Tangri mifologik obrazlari katta o'rinni egallagan bo'lib, ularning qadimgi turkiy adabiyotdagi, xususan, moniylik adabiyotidagi vazifasini yanada aniqroq tasavvur qilish uchun quyidagi parchaga murojaat etamiz:

Asl matn: Ikinti (ikkinchi):

“Yama kun tangrika iki yaruq ordu ichra olurug'ma tangrilarka qamug' burxanlarning arig' nomning. Adgu qilinchlig' uzutlarning. Yir (sub) yaruqunung. Tozi yiltizi tirnaguli tangri yiringaru barsar ongu qapig'i. kun ay tangri ol. Biz tangrig boshug'ali. Yaruqug' qarag' atirg'ali tag'da tali tagzinur tort bulungug'! Yaritur tangrim suida baru bilmatin kun ay tangrika iki yaruq ordu ichra olurug'ma tangrilarka nacha yazintimiz arsar. Arksizin tug'ar batlar arki bar arsar tuymasın tidimiz arsar. Kantu ikinti bilmatin yazinmish yazuqig' boshunu otunur biz. Manastar birza...”

Ma'nosi:

“Kun, Oy xudolariga, ikki nur saroyi ichra o'tirgan xudolarga-hamma burxanlarni, pok-muqaddas yozuvlarni, yaxshi xulqli xabarchilarni, yer-suv nurini, tuproqni, ildizlarni birga xudolar makoniga jo'natgan edik. Oldingi darvoza-Kun, Oy xudolarnikidir. Beshala xudoni ozod qilgani, nur bilan zulmatni (bir-biridan) ajratgani (nur) tag-tugi bilan aylanib, to'rt tomonni yorityapti. Ey Xudoyim! (Biz) gunoh (ichida) yurib, bilmasdan, Kun, Oy (xudolari) halok bo'lyapti, dedik. Zaifligi bilan (ular) chiqadi va botadi, qudrati bor bo'lsa edi, quyosh chiqmas edi. Biz o'zimiz Kun, Oy xudolaridan yuqorimiz, dedik. Ikkinchi (marta) bilmasdan qilgan gunohlarimizdan xalos qilgin, deb iltijo qilyapmiz: Gunohlarimizni kechirgin!”[N.Jo'raqo'ziyev, 2018; 132-133-b]

Ushbu parchadan shunday xulosa chiqarishimiz mumkinki, moniylik miflarida zulmatdan qutqarilgan nurning parchalari, zarralaridan quyosh va oy yaratilgan. Shuning uchun ham yuqoridagi parchada, hamma burxanlarni yer-suvni, tuproq va ildizlarni ularning huzuriga poklanish uchun jo'natganligi, Kun va Oydan o'zini yuqori qo'yish gunoh ekanligi aytilmoqda. Ko'p xalqlar quyosh va oyni muqaddas deb bilishgan, ularni xudo deb ishonishgan, uning uchun otlarni qurbonlik qilishgan.

Tangrichilik mavzusiga ushbu asardan yana parchalarni keltirib, tahlil qilib ko'ramiz:

Asl matn. Onunch:

“Künkä tört alqış azrua täñrikä : kün ay täñrikä küçlüg täñrikä burxanlarqa bir biligin arığ köñülün alqansıq törü bar ärti : yämä qorqmatın ärmägürüp ädgüti tükäti alqanmadımız ärsär : yämä alqanur ärkän köñülümüzni saqınçımızni täñrigärü tutmadımız ärsär : alqışımız ötügümüz täñrikä arığın tägmädi ärsär : nä yirdä tidinti tutuntı ärsär : amtı täñrim yazuqda boşunu ötünürbiz!”[Q.Sodiqov, 2009; 323-b]

Ma'nosi. O'ninchi bo'lim:

“Kunda to'rt olqish – Azrua tangriga, Kun-Oy tangriga, kuchli tangriga, burxonlarga, ixlos bilan, chin ko'ngil bilan olqish aytish farzi bor edi. Yana qo'rqmasdan, erinib, yaxshi va tugal alqamagan bo'lsak, yana alqov aytganda ko'nglimizni, o'y-fikrimizni tangriga tutmagan bo'lsak,

duolarimiz tangriga poklik bilan yetmagan bo'lsa, qay yerda tiyilib-tutilib qolgan bo'lsa, endi tangrim, gunohdan qutqarg'il deya o'tinurmiz. Gunohimizni kechirgaysan!"

Ushbu matndan quyosh va oyni moniy oqim idagi insonlar juda ham hurmat qilishgan va muqaddas bilib, ularga olqishlar-u duolar aytishgani, duo qilishni unutib yoki duo paytida ham o'y-xayollari tangrilarida bo'lmagan taqdirda bu ishlarini gunoh bilib, afv etishini so'rab iltijo qilishganini bilish mumkin.

"Xuastuanift" asarining yana bir e'tiborga molik tomoni borki, ushbu asarda ro'za tutib, ibodat qilishlik bilan bog'liq bo'lgan parchalar ham mavjud bo'lib, yettinchi va o'n ikkinchi bo'limlarda keltirilgan:

Asl matn. İki yigirminç:

"Bir yilqa ālig kūn arīg dintarča vusanti olursuq törü bar ārti : arīg bačağ bačap täñrikä ančulasıq kărgäk ārti : yämä āw barq tutduq üçün yilqıqa barımqa bulup : azu muñumuz taqımız tägip : yämä todunčsuz uwutsuz suq yäk üçün : yämä qorqunčsuz köñülümüz üçün ārinip ārmägürüp ārkligin ārksizin bačağ sīdīmız ārsār : yämä bačağ olurup ādgüti nomča törüča bačamadīmız ārsār : amtī täñrim yazuqda boşunu ötünürbiz!"[Q.Sodiqov, 2009; 324-b]

Ma'nosi. O'n ikkinchi bo'lim:

"Bir yilda ellik kun pok rohiblarcha farzni bajarish kerak edi. Chin ro'za tutib, tangriga ehson qilish kerak edi. Yana uy-joyini tutish uchun, mol-mulkka xirs qo'yib yoki hojatimizni ko'zlab, yana to'ymas, andishasiz, suq shayton uchun, yana qo'rqmaydigan ko'nglimiz uchun erinib, bilib-bilmay ro'zani buzgan bo'lsak, ro'za tutib, ezgulik bilan qonun-qoidalarga mos holda ro'za tutmagan bo'lsak, endi tangrim, gunohdan qutilaylik deya o'tinurmiz. Gunohimizni kechirgaysan!"

Qadimgi yozma manbalar, xususan, "Xuastuanift" asari orqali bilishimiz mumkin bo'lgan mifologik obrazlar va tasavvurlar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Mifologik tasavvurlar hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Qadimgi yozma manbalarda qayd etilgan mifologik tasavvurlar va obrazlarning bugungi kundagi ahamiyatiga to'xtalamiz:

I. Erlikxon va uning olami, unga keltiriladigan qurbonliklar, Ko'k Tangri kunimizda ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ibtidoiy insonlarning o'lim hodisasi bilan bog'liq turli mifologik tasavvur-tushunchalari, ishonch-e'tiqodlari orqali, qolaversa, bevosita shu mifologik tasavvur-tushunchalar va qadimiy ishonch-e'tiqodlar asosida motam bilan bog'liq bo'lgan udumlar, umuman olganda, yashash jarayonidagi an'analar vujudga kelgan;

II. Ibtidoiy inson odam o'lgach, uning ruhi boshqa jism ko'rinishida qayta tiriladi, degan animistik tasavvur bilan yashagan. Odam o'lgach, narigi dunyoga o'tgan ruh daraxt, o'simlik, gul kabi ko'rinishda bu olamga qaytib kelishiga ishonganlar. Shu ishonchlar zahirida odamlar orasida "hayot daraxti" haqidagi mifologik tasavvurlar shakllangan. Shuning uchun inson jasadi yog'ochdan yasalgan tobut orqali narigi dunyoga kuzatiladi.[M. Jo'rayev, D. O'rayeva, 2019; 199-b]

III. Turkiy xalqlarning qadim ajdodlari osmon yoritqichlarining mifologik tabiatini muqaddaslashtirib, samoviy kultlar madadiga umid bog'lab yashaganlar. [M. Jo'rayev, D. O'rayeva, 2019; 241-b] Ushbu ma'lumotga misolni qadimgi yozma manbalarda uchratish mumkin.

IV. Muqaddas deb bilguvchi Quyosh va Oy xudolarining bugungi kunda ham ahamiyati mavjud ekanligini Samarqand viloyati Ishtixon tumani Yuqori Qozog'ovul qishlog'ida istiqomat qiluvchi Bolqim ona Bo'ltakovadan yozib olingan xalq qo'shiqlari orqali tahlil qilamiz:

Ajdi kordim imam minam

Qojnim tola Qur'an minam.

Shu ajlarda vapat qisam

Agin žanimdi ijman minam.

Ajmamažan xuš kepsan meni qışlayimya, meni ujimya. Assalāmu alejkum ajmamažan.[S.G'afforova, 2020; 22-b]

Oyni ayol jinsidek tasavvur qilinib, momo deyish, quyoshni esa bobo deyish holatlari uchraydi. Oyni endi chiqqan paytida vafot etish yaxshilik ekanligini, oyni hurmat qilish, muqaddaslashtirish hozirgacha saqlanib qolganligini tushunishimiz mumkin.

V. yangi tug'ilgan oyni ilk ko'rgan paytda niyat qilishlik, shukronalar keltirishlik qadimgi manbalarda tahlil qilganimiz Oy va Quyoshning muqaddaslashtirilishi bilan bevosita bog'liq. Samarqand viloyati Ishtixon tumani Yuqori Qozog'ovul qishlog'ida istiqomat qiluvchi Bolqim ona Bo'ltakovadan yozib olingan xalq qo'shiqlarini misol qilish mumkin:

Ajdi kordik amanliq	Qavmu qarindaşlarim minam
Heç kormajik žamanliq.	Qāriju žāšim minam
Žanaki žanaki žillarya	Jelu žurtim minam
Torkoz tuvallik minam	Āvul hamsijam minam
Dili beyamlik minam	Qışlayim minam
Balalarim minam	Allahim oziq qorib qollagin.
Aka-ukalarim minam	Xuš kepsan ajmamažan, anažan.
Apa-sijillarim minam	[G'afforova 2020; 22-b]

Ushbu parchada oyga qarab shukronalik bildirish va barcha yaqin qadrdonlari bilan yana ko'p yillar sog'lik-omonlikda bunday yaxshi kunlarni ko'p-ko'p ko'rishlik niyat qilinib kuylanmoqda. Bu kabi xalq qo'shiqlari hozirda ba'zi hududlarda saqlanib qolgan.

Biz "Xaustuanift"da samoviy kult vazifalari hamda samoviy jismlar obrazini, asarning kelib chiqishi va mazmunini tahlil etishga, shuningdek, ushbu mifologik tasavvurlarning bugungi kundagi ahamiyatini ko'rsatishga harakat qildik. Moniylik manbalaridagi kosmogonik jismlar va ularning bajaradigan vazifasi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganligi diqqatga sazovordir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'afforova S. O'zbek folklori fanidan amaliyot mashg'uloti. 2020. – 62 b.
2. Jo'rayev M., O'rayeva D. O'zbek mifologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019. – 555 b.
3. Sodiqov Q. Turkiy til tarixi. – Toshkent, 2009. – 319 b.
4. Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Тошкент, 1982. – 164 б.
5. Жавлиев Т. Табиат, инсон ва дин. – Тошкент: Фан, 1986. – 176 б.
6. Жўрақўзиев Н. Қадимги туркий ёзма ёдгорликларда космогоник мифология: : Филол. фанл. бўй. фалс. докт...дисс. – Тошкент, 2018. – 157 б.
7. Раҳмонов Н. Битиглар оламида. – Тошкент: Фан, 1990. – 68 б.
8. Элиаде М. Космос и история. – М., 1987. – 311 с.